

SHUKUR XOLMIRZAYEV VA UNING ASARLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Xayrullayeva Marjona Xayrulla qizi

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 312-guruh 3-kurs talabasi, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. Insonlarning qalbida doimo iliq munosabatlar, mehribonlik va yaratuvchanlik kabi hislar bo'ladi. Shunday ajib hislar ularning aqliy jarayonlari bilan birgalikda emas balkim ularning qalbida ichki intuitsiyasida hosil bo'ladi. Shunday ekan, Shukur Xolmirzayev ham o'zining hayoti va o'zida kechayotgan emotsional-hissiy holatlarini o'z asarlariga jo qilgan esam asli mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqola orqali Shukur Xolmirzayev va uning asarlari haqidagi psixologik hissiy holatlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: psixologik holat, asar, xulosa, tasvir, adabiyot, haqiqat, hikoya, adib, ta'sir.

Asosiy qism

Ko'pincha hikoyalarda o'zini ovchi sifatida tasvirlagan adibimiz haqiqat ham real hayot tavsiflarini o'z hikoyalarda yuzaga chiqara olgan. Shukur Xolmirzayev haqiqatgo'y va o'ta adolatli shaxs sifatida tanilgan. Uning asarlarini o'qir ekansiz, sizni nimadirga da'vat etish yoki kuchli ta'sir tko'rsatishga emas balki, xulosani o'qiyotgan insonni o'zigagina qoldirgan. Shukur Xolmirzayev hikoyalari hayotda, inson qalbida yechil-may yotgan muammolarning badiiy tahliliga qaratiladi. Yozuvchi qahramonlari asar g'oyasini, badiiy topilmalarni kitobxon og'ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to'g'ri yo'l topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi.

"Qor tushishi bilan bizga jon kirardi. Tong bo'zarganda qarabsizki, multiq yelkada, hali iz tushmagan bog' ko'chadan g'izillab ketib boryapmiz toqqa qarab." Ushbu jumla "Shukur Xolmirzayevning "Ko'ngil" nomli hikoyasidan olingan bu parchada, shunchalik samimiylilik va yoshlik hissining barq urishi haqiqiy tabiatning softligi-yu Boysun xalqining tabiati bilan hammohang ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Hikoyada adibimiz qor yog'ganini ko'rib xursand bo'lib ketganligi va buning natijasida ovga, kaklik ovlagani chiqishga suyunib ketganligini aytib o'tadilar. Shu bilan birgalikda kaklik uchun Nazrulla ismli o'rtog'i bilan birgalikda borishini, sababi Nazrulla kim ketdik desa birga boraveradigan, hattoki darsi bo'lsa ham ovga chiqishni yaxshi ko'radigan bola bo'ladi, uning o'zida multiq bo'lmaganligi sababli kim bilan ovga borsa ham o'zi uyga hech narsa olib kela olmasdi deydi:- hikoyanavisimiz. O'sha paytdagi bunaqa softlik samimiylilik barq urgan bu hikoyalarda adibning qismati ham tasvirlanib ketgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Hikoyaning aynan ko'ngil deb borishiga ham sabablar bor, Narzulla o'sha qorli kunda kun bo'yi ovda yuradi va do'sti bilan birgalikda ikki dona kaklik ovlaydilar so'ngra, Nasrulla do'stini uyga taklif etadi, uning onasi ikki do'stga go'sht qovurib qo'yadi. O'sha paytda oilada faqat Nazrulla va onasi yashar, otasi urushda vafot etgan bo'ladi. Shunday bo'lsa ham har ikki tutilgan kaklik ham Narzullaga nasib etmaydi, u qanchalik tamshanib qaragani bilan foydasi bo'lmaydi. Himoyachimiz esa ko'chasida yashovchi doim uni mazax qilishga uringan, "qani bugun ovga nima olib kela olasan" degan gaplarni eshitmaslik uchun ham har ikki kaklikni ham o'rtog'iga bermay qaytadi. Biroq, bu kakliklar nasib etmadi, sababi uni mushuk olib ketadi. Sababi "ko'ngil" biz kimningdir ko'nglini og'ritish bilan hech bir narsaga erisha olmasligimizni va ishlarimizning amalga oshmaganligini guvohi bo'lamiz. Aynan hikoyada ham bu tushunchaga alohida urg'u berib o'tadi, insonlarning nimadir moddiyatga bo'lgan xirsi yoki insonlarning gap-so'zlari ba'zida umuman ahamiyat etmasligi kerakligi, go'yoki hikoyada yaqqol namoyon bo'lgani kabi. Adibimiz shunday deydi, "men oddiy yashadim, qanday yashash kerak bo'lsa shunday, ya'ni men hech narsani o'zgartirishga harakat qilmadim.."

Yana bir ko'ngildan joy oluvchi hikoyalardan biri "Olma yemadim" hikoyasida haqiqiy halollik, to'g'ri yashashga va adolatlilikka chorlovchi hikoyalardan biri hisoblangan. Bu hikoyada do'stlari bilan birgalikda

bog'dan o'tib ketayotganda do'stlari barchasi bog'ga olma o'g'rlash uchun kirganda adib kirmayman, deydi bu og'irlik men yemayman deb qatiyan rad javobini aytadi. Do'stlari kirsada o'zi yosh bo'lishiga qaramay chidamlilik va bardoshlilik bilan uni yemaslikka sabr bilan manzilga yetib borishga harakat qiladi. Halol luqma doimo totli va to'yimli bo'ladi, aynan hikoyada sabrlik, rostlik va tog'rililikni yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin. Adib o'z hikoyalarida uni o'qib chiquvchilarni hech bir narsaga davlat etmaydi, undagi xulosani esa o'qigan insonni o'zigagina qoldirib qo'yadi xolos. Tabiatan kam gap va uncha ko'p ishlarga aralashmaydigan adibimiz, qachondir hikoya yoki asar boshlab yozayotganlarida xuddi ko'chaga chiqayotganligi kabi yangi kiyimlarni kiyib olgan. O'rgangan ma'lumotlarga qaraganda Shukur Xolmirzayev ijod bilan shug'ullanayotganlarida hech kim bilan gaplashmas, go'yoki tarki dunyo qilgani kabi hattoki boshqalar bilan birgalikda ovqatlanmas ham edi. U hikoyalarida, asarlarida yashardi, agar kim bilandir gaplashsa xuddi o'zining hayotiga aralashib qolgandek tuyulardi. Hikoyanavislik sohasiga yangi uchqun bo'lib kirdi, o'zining dangalligi bilan faqat va faqat haqiqat adolatga tayanib ish ko'rishi bilan ba'zida ayrim paytlarda tortishuv, nizolarga duch kelardi. "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir (1963–1967), Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh (1967–1969), "Guliston" (1969–1975) va "Sharq yulduzi" (1978–1980) jurnallarida adabiy xodim, bo'lim mudiri bo'lib faoliyat yuritgan Shukur Xolmirzayev har bir qilgan ishiga real yondashgan va nisbatan kamchiligi ko'p bo'lgan ishlarni ko'pini qaytargan, ko'plab ijodkorlar ishini qaytarganligi sababli ham ishdan bo'shab ketgan holatlari ham bo'lgan. Biroq adibimiz haqiqiy ijodni sevgan uni hayotini mazmuniga aylantira olgan yangi bir kashfiyot kabi ijod olamiga kirib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SHUKUR XOLMIRZAYEV. SAYLANMA. I-JILD. Hikoyalar 3-4-betlar
2. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т.: 2004.
3. www.ziyouz.uz. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi.